

FANLAR KATALOGI

Fan platformasi		
Fanning to'liq nomi: O'ZBEK TILI		
Fan kodi: O'RT 1204	Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS): 4	davomiyligi: 1 semestr
Kafedra: O'zbek tili va professional ta'lim		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: barcha ta'lim yo'nalishlari uchun		
Fan amaliyot o'qituvchilari: dots. Tavaldiyeva G.N.		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 120	Email: gulbahor_tavaldiyeva@mail.ru .	
Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari): - fan bo'yicha seminar mashg'ulotlari yo'q.		
Prerekvizitlar: O'zbek tili fanining fonetik, orfoepik xususiyatlari, leksika, grammatika, stilistika haqida tushuncha. Tanlov turi: majburiy fan umumta'lim		
<p>Fanning qisqacha bayoni: "O'ZBEK TILI" fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 1-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Mazkur fan gumanitar fanlar turkumiga kiradi. Fanni puxta o'zlashtirish nazariy va amaliy materiallarni bilish bilan birga, talabalarning pedagogik va ishlab chiqarish amaliyoti davrida va universitetni bitirgandan keying ishlarda ko'nikma sifatida xizmat qiladi.</p>		

Fanning maqsadi: talabalarning quyi ta'lim bosqichlarida egallagan nutqiy faoliyat malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish, tanlangan ixtisoslik doirasida davlat tilini puxta bilishlariga erishish, bo'lajak mutaxassislarda o'zbek tilida akademik va texnik muloqotning kommunikativ kompetentsiyasini, ya'ni ilmiy-amaliy faoliyatda muayyan nutqiy vaziyatlarda til vositalaridan to'g'ri foydalanish qobiliyatini rivojlantirish, xususan, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, matnlardan yangi ma'lumotlarni olish, sohaga oid matnlar yaratish, kasbiy mavzularda taqdimotlar tayyorlash orqali o'zbek tilida og'zaki va yozma nutqiy savodxonlikni ta'minlashga erishish.

Talabalarning o'zbek tilida og'zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish, fikrga o'z munosabatini bildirish, turli nutq uslublarida ixtisoslikka oid matn tuza olish, tushunib o'qish va tarjima qila olish, turli tipdagi matnlarni erkin tuza olish malakalarini oshirish, o'zbek tilidagi axborotni tushunish va qayta ishlash, unga tanqidiy, tahliliy munosabat bildirish hamda rasmiy ish qog'ozlarini yozishga o'rgatiladi.

Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

- Ilmiy va kasbiy sohalarida og'zaki va yozma nutqni samarali qo'llay oladi, kasbiy terminologiyani, og'zaki va yozma nutq xususiyatlarini biladi va ulardan foydalana oladi;
- O'zbek tilida ixtisoslikka oid matn tuzadi, axborotlarni tahlil va tahrir qiladi, sohaviy hujjatlarni tayyorlaydi va rasmiylashtiradi, nutqiy kompetensiyasi oshadi;
- Mutaxassislik bo'yicha matnni to'g'ri idrok etadi, o'z bilimlari asosida eng muhim ma'lumotlarni ajratib ko'rsatadi, o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi va asoslay oladi:
 - Kasbiy faoliyat muammolarini hal qilish uchun o'zbek tilida og'zaki va yozma shakllarda kasbiy muloqot yurita oladi.

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Barcha darslar sxema bo'yicha quriladi: lug'at bilan ishlash, grammatik sharhlar, tegishli tematik matnlar, o'quv mashqlari.

O'quv materialini mustahkamlash uchun juda ko'p joy ajratilgan. Bu o'quvchilarga fan bo'yicha ko'nikmalarni egallashga yordam beradigan testlar, savollar, mashqlar va boshqa topshiriqlardir. Ular bakalavriat talabalarining havaskorlik faoliyatini, reproduktiv faolligini shakllantirishga yordam beradi.

Mustaqil ta'lim

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar, guruh bilan ishlanmalar, referatlar tayyorlanadi.

№	Fan mavzulari	Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi	Mustaqil ta'lim soatlari
1	O'zbek tili orfoepiyasi. O'zbek tilida fonetik o'zgarishlar	2	1
2	O'zbek tilining yozuv taraqqiyoti. O'zbek tilining imlo qoidalari	2	6
3	Bosh harflar imlosi. Tutuq belgisining qo'llanishi.	2	8
4	O'zbek tili leksikasi. O'zbek tilining leksik qatlamlari.	2	1
5	So'z yasalishi. So'zlarda kelishik va egalik vositalari.	2	2
6	O'zbek tilida barqaror birikmalar. (Ibora, aforizm, maqol, matal)	2	2
7	So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.	2	2
8	Mutaxassislik atamaları va soha lug'atlari. Ilmiy-texnikaviy	2	10
9	Gap tuzilishi. O'zbek tilida subyektni ifodalash.	2	2
10	O'zbek tilida predikat. Predikat va subyekt munosabati	2	2
11	O'zbek tilida obyekttni ifodalash.	2	2
12	O'zbek tilida belgini ifodalash.	2	2
13	O'zbek tilida holatni ifodalash.	2	2
14	Matn. Matn tahlili va tahriri. Matnga so'z tanlash va qo'llash.	2	2
15	Nutq uslublari. Fikrni ilmiy uslubda ifodalash.	2	2
16	Ilmiy matn ustida ishlash. Reja. Tezislari. Annotatsiya. Izoh.	2	2
17	Badiiy uslub xususiyatlari. Fikrni badiiy uslubda ifodalash. Esse.	2	4
18	Fikrni so'zlashuv uslubida ifodalash. Kasbiy faoliyatda og'zaki	2	4
19	Fikrni publitsistik uslubda ifodalash. Reportaj tayyorlash. Intervyu	2	2
20	Fikrni rasmiy uslubda ifodalash.	2	2
21	Fikrni bog'lanishli ifodalash. Fikrga munosabat bildirish. O'zgaralar	2	2
22	Taqdimot tayyorlash va unda fikr ifodalash qoidalari.	2	2
23	Og'zaki adabiy nutq. Og'zaki muloqot. Nutqiy vaziyatlarni og'zaki	2	8
24	Ish yuritish tili va uslubi. Xizmat yozishmalarining tili va uslubi.	2	2
Jami		48	72

Asosiy adabiyotlar

1. Muhiddinova X.S. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlariga uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2006. – 304 b.
2. G.Tavaldiyeva. O'zbek tili 2. – Toshkent. TKTI, 2017. 176 b.
3. I.T.Boltaboyeva. O'zbek tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020. - 258 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1989-y., 26-28-son, 453-modda; 1991-y., 11-son, 273-modda.
<https://lex.uz/ru/docs/-109394>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019.06/19/5712/3034-son).
<https://lex.uz/docs/4561730>.
3. Lafasov U. O‘zbek tili O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: ToshDSHI, 2016. -532 b.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2020.– 526 b.
5. Tavaldiyeva G.N., Keldiyorova G.S., Eshniyazova A.Sh. “O‘zbek tili” (Toshkent kimyo-texnologiya instituti rusiyzabon talabalari uchun amaliy qo‘llanma). –Toshkent: TKTI. 2019. 215 b.
6. Tog‘ayev T.M., Tavaldiyeva G.N., Akromova M. O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati. –Toshkent: “Sharq”, 2015. 431 b.
7. Sohaviy lug‘atlar.

Internet saytlari

1. <https://n.ziyouz.com/kutubxona> – Ziyouz.com kutubxonasi.
2. <https://lex.uz/uz/> – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
3. <https://www.gov.uz/uz> – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
4. <https://www.edu.uz/uz> – O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
5. <http://teachyourselfuzbek.com/resources/coursebooks/> - Самоучитель узбекского языка.
6. http://sahifa.tj/rusko_uzbekskij_razgovornik.aspx - Русско-узбекский разговорник.

Kontakt soatlari*: mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma’lumotlar va turli materiallar bo‘yicha savollarga quyidagi grafik asosida o‘qituvchiga murojat qilishingiz mumkin:

O‘qituvchining F.I.Sh.	Kun	Vaqt	Xona
1. Tavaldiyeva G.N.	Dushanba	12:00 – 16:00	S.D/60 109 xona